



MATERIALS

**of international scientific-theoretical
conference**

**"PROSPECTS FOR THE DEVELOPMENT OF
NATIONAL ECONOMY SECTORS IN THE ARAL SEA
BASIN UNDER THE CONDITIONS OF GLOBAL
CLIMATE CHANGE"**



МАТЕРИАЛЫ

**Международной научно-теоретической конференции
«ПЕРСПЕКТИВЫ РАЗВИТИЯ ОТРАСЛЕЙ НАРОДНОГО
ХОЗЯЙСТВА В БАСЕЙНЕ АРАЛЬСКОГО МОРЯ В
УСЛОВИЯХ ГЛОБАЛЬНЫХ КЛИМАТИЧЕСКИХ
ИЗМЕНЕНИЙ»**



**Digital object
identifier**



**Google
Scholar**



OpenAIRE

Nukus-2024

XORAZM VILOYATI SUG'ORILADIGAN YERLARINING HUDUDIIY TUZILISHI

Matchanova Z.I.,

Namozov J.A.

Urganch davlat universiteti

Chirchiq davlat pedagogika universiteti

O'zbekiston

Аннотация. В статье на основе статистических данных рассматривается структурная структура орошаемых земель Хорезмской области. Статистический анализ проводился в разрезе районов, при этом особое внимание уделялось межрайонным территориальным различиям в орошаемых землях региона.

Ключевые слова: сельское хозяйство, земельные ресурсы, пахня, орошаемые земли, Хорезмская область.

Abstract. In the article, the structural structure of irrigated lands of Khorezm region is considered based on statistical data. The statistical analysis was carried out in the cross-section of districts, and special attention was paid to the inter-district territorial differences in the irrigated lands of the region.

Key words: agriculture, land resources, arable land, irrigated land, Khorezm region.

Xorazm mamlakatimizda Andijon va Sirdaryo viloyatlaridan katta bo'lib, maydoni 6,05 ming km² ni tashkil etadi. Hududining katta qismi qishloq xo'jaligiga tegishli (332,8 ming ga) va shundan 26,6 ming gektari sug'oriladigan yerlar hisoblanadi (8,1%). Qishloq xo'jaligining 205,3 ming gektari ekin yerlar hamda uning barchasi obikor yerlardir [5]. Umumiy yer resurslari bilan ta'minlanganlik darajasiga bo'yicha Gurlan va Qo'shko'pir tumanlari keskin ajralib turadi. Gurlan tumani maydoni Qo'shko'pir tumani maydoniga nisbatan katta. Umuman olganda, mintaqada faqat Qo'shko'pir tumanining maydoni 50 ming gektardan ortiq. Eng kichik Yangibozor tumani maydoni Qo'shko'pir tumani maydonidan 1,5 barobar kichik bo'lib, ushbu viloyatdagi hududiylik (geografiylik) koeffitsienti shuncha miqdorga tengdir. Viloyat hududiga mos ravishda uning hududlari maydoni o'rtasidagi tafovut ham uncha katta emas.


Sug'oriladigan yerlar maydoniga nisbatan, katta hudud Xazorasp tumanidir (33,7 ming gektar). Umuman bu borada viloyatning uchta qishloq tumani yetakchi bo'lib, Xazoraspdan tashqari Qo'shko'pir (31,1 ming gektar) va Gurlan (30,1 ming gektar) tumanlari ham sug'oriladigan yerlar bilan yaxshi ta'minlangan. Yangiariq va Xiva tumanlari yuqoridagilardan farqli o'laroq, eng past ko'rsatkichga egadir. Chunki, bu tumanlar suv resurslari bilan uncha yaxshi ta'minlanmagan [2].

Viloyatda yerlarning sho'rlanishi, yog'in miqdori relyefi, cho'kindi jinslarning mexanik tarkibi va sug'orma dehqonchilik bilan bog'liq. Hududda grunt suvlari sathi bahorgi sho'r yuvish vegetatsiya davrining o'rtalarida ancha yuqori bo'ladi va bu davrda ekin maydonlarida ikkilamchi sho'rlanish kuchayadi. Xorazm viloyati

sharoitida grunt yoki sizot suvlari sathi yer betiga 150 sm ga yaqinlashgan vaqtda tuproq bo'shliq va g'ovakalar orqali yer betiga o'simliklar ildiziga nam bera olmaydi. Qolaversa, keragidan ortiq sug'orish ham salbiy oqibatlarni kuchaytiradi.

Suvning kam berilishi ekinlar hosildorligini kamaytirsam, ortiqchaligi resurslari unumdorligiga ta'sir qiladi. Mazkur holat ekologik muvozanatning buzilishiga olib keladi va ekinlar hosildorligida ta'sir ko'rsatadi. Sug'orish tizimining muntazam joriy va kapital ta'mirlanib turishi o'z vaqtida olib borilsa, suv resurslari isrofgarchiligining oldi olinadi. Bu esa suvdan foydalanish samaradorligini oshiradi. Demak, suvidan samarali foydalanish uchun sug'orish usullarini zamon talablaridan kelib chiqqan holda qo'llash maqsadga muvofiqdir [3].

Sug'oriladigan ekin yerlar qurg'oqchil zonada joylashgan har qanday hududning asosiy boyligi bo'lib, qishloq xo'jaligini xususan dehqonchilikni rivojlanishida muhim rol oynaydi. Xorazm viloyatida sug'oriladigan yerlar maydoni 266,2 ming ga. Hududlar miqyosida ko'rib chiqadigan bo'lsak, asosan Amudaryo vodiysi bo'yida joylashgan qishloq tumanlari sug'oriladigan ekin yerlar bilan yaxshi ta'minlangan. Ushbu hududlarning ekin yerlari, umumiy ekin maydonning kamida yarmini egallaydi (1-rasm). Mazkur joylarning agroiklimiy sharoiti boshqa hududlarga nisbatan qulayroq bo'lganligi sababli, ularning o'ziga xos sug'orish an'anasi (texnologiyasi) shakllangan va ko'p yillar mobaydida avloddan-avlodga o'tib takomillashib borgan. Umuman respublikamizda sug'orma dehqonchilik agrar sohaning intensiv shakli borasida ushbu viloyat hududidagi xalqlarning o'ziga yarasha o'rni mavjud. Masalan, suvdan tejamkorlik bilan foydalanish yo'llari, tuproqning eroziyaga (suv eroziyasiga) uchrashi oldini olish (bu ayniqsa, qiyaligi yuqori joylarda), sug'orishning o'ziga xos usullari, o'rtacha hosildorlikning nisbatan yuqoriligi va hokazo [1].




1 - rasm. Sug'oriladigan yerlar ulushi

Manba: O'zbekiston Respublikasi Davlat soliqliq qo'mitasi huzuridagi Kadastr agentligi 2021 yil ma'lumotlari asosida muallif tomonidan tayyorlandi.

Xorazm viloyatida ham sug'oriladigan yerlar joylashuvida uning hududiy tafovutlari kuzatiladi. Qishloq xo'jaligi yerlariga nisbatan sug'oriladigan yerlar ulushi o'rtacha ko'rsatkichi juda past bo'lib, bunga asosiy sabab mintaqaning maydoni eng yirik ikki cho'l hududiga yaqin tumanlari Xazarasp va Tuproq'qala hududlarida ushbu yerlar juda kamligidir. Bu borada Gurlan tumani sug'oriladigan yerlari eng yuqori ko'rsatkichga ega. Xonqa va Bog'ot tumanlari ham sug'oriladigan yerlari nisbatan yaxshiroq ko'rsatkichga ega.

Qishloq xo'jaligi yerlarida ekin yerlar ulushi ham kamroq bo'lib, bu bevosita uning joylashgan o'rni bilan bog'liq. Hududlar miqyosida sharqiy rayonlar mazkur yerlar bilan yaxshi ta'minlangan. Mintaqada umumiy ekin maydoniga nisbatan sug'oriladigan ekin yerlar ulushi Gurlan va Bog'ot tumanlari ham suv resurslari bilan yaxshi ta'minlangani uchun, sug'oriladigan ekin yerlar ulushi ancha ko'p miqdorini tashkil etadi. Sug'oriladigan ekin yerlar ulushi umumiy ekin maydonlariga nisbatan olganda Xiva va Hazorasp tumanlari ancha past ko'rsatkichga ega. Suv yetishmovchilligi hamda relyefining noqulayligi sabab bu yerda faqat sug'orma dehqonchilik qilish mumkin.



2 - rasm. Ekin yerlar ulushi

Manba: O'zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo'mitasi huzuridagi Kadastr agentligi 2021 yil ma'lumotlari asosida muallif tomonidan tayyorlandi.

Xorazm viloyati yerlari mamlakatda unumdorlik ko'rsatkichi bo'yicha oxirgi o'rinlarda turadi. Buning asosiy sababi sho'rlanish darajasi yuqori ekanligi, ya'ni tabiiy sharoitning uncha yaxshi emasligidir. Viloyat yer resurslarining dehqonchilik uchun noqulay xususiyatlari sho'rlanish, tuproq eroziyasi, botqoqlanish va boshqalar.

Sug'oriladigan yer va suv resurslari bilan ta'minlanishi va undan foydalanish bo'yicha viloyat hududlari bir-biridan farq qiladi. Eng katta sug'oriladigan yerlar va

suv miqdori Hazorasp va Qo'shko'pir tumanlari hissasiga to'g'ri keladi. Yangibozor tumanida har ikkila resurs cheklangan, bu yerlarda asosan ekstensiv qishloq xo'jaligi shakllangan. Deyarli qishloq xo'jaligining birorta tarmog'i salmoqli rivojlanmagan. Umuman olganda, bu yerda asosiy muammo sifatida hududning suv resurslari bilan ta'minlanmaganligi tilga olinadi.

Ekin yerlari ulushi bo'yicha ham Xazorasp (13%) va Gurlan, Qo'shko'pir tumanlari ajralib turadi. Bular viloyat dehqonchiligining tayanch hududlari hisoblanadi. Urganch (0,1%) va Yangiariq (6%) tumanlari bu borada ancha orqada turadi (2-rasm).

Yer resurslarining yomonlashgishiga, Orol dengizining qurigan qismidan uchib kelayotgan tuzli changlarning yerga yopirilishini ko'rsatish desak, ikkinchidan yerlarning sho'rini yuvish uchun suvning tanqisligidir. Mintaqada foydali yer resurslari maydoni qisqarishini oldini olish, bunda yerning holatini yaxshilash, hosildorligini oshirish va uni muhofaza qilish ishlarini bir vaqtda amalga oshirish lozim.

Suvning qishloq xo'jaligi mahsulotlarini yetishtirishdagi ahamiyati yuqoridir. Chunki, mamlakatimiz hududida olinayotgan suvning 90-92 foizi qishloq xo'jaligiga ishlatiladi, hamda ishlatilayotgan mahsulotning 97-98 foizi aynan sug'oriladigan yerlardan olinadi. Suv resurslaridan keng miqyosda foydalanish tabiatdagi, qolaversa xalq xo'jaligi tizimdagi mavjud bog'lanishlarning o'zgarishga olib keldi. Bu o'zgarishlar xalq xo'jaligi tarmoqlarining manfaatlariga daxldor va natijada ijobiy samaradorlik bilan birga salbiy oqibatlarni vujudga keltiradi. Agar butun suv xo'jaligi tizimini yagona deb qaralsa va mavjud tabiiy sharoitlarning o'zgarishlarini hisobga olib xalq xo'jaligining turli tarmoqlarini suvning miqdori va sifatiga bo'lgan talablarni uzoq muddatli bashorat asosida bo'ladigan salbiy oqibatlarni sezilarli darajada bo'lishini isbotlashi mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Abduazizovich, N. J. R. (2024, May). XORAZM VILOYATI DEHQONCHILIGIDA FOYDALANILADIGAN SUV RESURSLARINING HUDUDIIY TAHLILI. In Konferensiyalar| Conferences (Vol. 1, No. 11, pp. 58-62).
2. Eshchanov R.A. Yer va suv resurslaridan barqaror foydalanishning agroekologik asoslari (Xorazm viloyati misolida). Biol. fan. dokt. diss. avtoref. T., 2008, 52 bet.
3. Ro'zmetov D., Matchanov M., Qalandarov U. Xorazm viloyati qishloq xo'jaligi geografiyasi (o'quv-uslubiy qo'llanma). - Urganch: UrDU, 2017. - 164 b.
4. Sektimenko V.YE., Ismanov A.J. Xorazm viloyati tuproqlari. T., "Fan", 2003, 16-31-betlar.
5. O'zbekiston Respublikasi yer fondi. – T.: O'zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo'mitasi huzuridagi Kadastr agentligi ma'lumotlari (<https://kadastr.uz/>), 2023.

«ПЕРСПЕКТИВЫ РАЗВИТИЯ ОТРАСЛЕЙ НАРОДНОГО ХОЗЯЙСТВА В БАССЕЙНЕ АРАЛЬСКОГО МОРЯ В УСЛОВИЯХ ГЛОБАЛЬНЫХ КЛИМАТИЧЕСКИХ ИЗМЕНЕНИЙ»

МЕЖДУНАРОДНАЯ НАУЧНО-ТЕОРЕТИЧЕСКАЯ КОНФЕРЕНЦИЯ

42.	“QORAQALPOQ-AGRO” ERKIN IQTISODIY ZONASINING HUDUIY JOYLASHUVI Amanov A.K.	188-191
43.	ОЙКОНИМЛАР ТОПОНИМЛАРНИНГ ТУРИ СИФАТИДА ВА УЛАРНИ ИЖТИМОЙ-ГЕОГРАФИК ТАДҚИҚ ЭТИШНИНГ МАНБАЛАРИ, УСУЛЛАРИ ВА ЁНДАШУВЛАРИ Балтабаев О.О.	192-199
44.	TURISTIK DESTINATSIYA: RIVOJLANISH XUSUSIYATLARI VA BOSQICHLARI Bekbulatova G.A., Tojibaeva L.R., Xamidullayev I.A.	200-203
45.	ВОПРОСЫ УСТОЙЧИВОГО РАЗВИТИЯ КАРАКАЛПАКСКОГО УСТЮРТА Бекманов Н., Сабилов Н., Оринбоев С., Шарипов Р., Джаксымуратов К.М.	204-207
46.	ЎЗБЕКИСТОНДА ТУРИЗМ СОҲАСИНИНГ РИВОЖЛАНИШИ ВА САЛОҲИЯТИ Ембергенов Н.Ж., Абдимуратова Н.К.	208-211
47.	ЎЗБЕКИСТОНДА АҲОЛИ СОНИНИНГ ЎСИШИ ВА УНИНГ ҲУДУДИЙ ХУСУСИЯТЛАРИ Ембергенов Н.Ж., Аюезов О.Т.,	212-217
48.	DEMOGRAFIK OMILLARNING GEOKRIMINOGEN VAZIYATGA TA‘SIRI (QO‘QON SHAHRI MISOLIDA) Komilova N.K., Maxmudov B.X.,	218-222
49.	XORAZM VILOYATI TOPONIMLARI TARKIBIDA OYKONIMLARNING SHAKLLANISHI Kutlimuratov A.A.	223-227
50.	XORAZM VILOYATIDA ZIYORAT TURIZMINI RIVOJLANTIRISH IMKONIYATLARI Matchanova A.E.	228-230
51.	XORAZM VILOYATI SUG‘ORILADIGAN YERLARINING HUDUDIIY TUZILISHI Matchanova Z.I., Namozov J.A.	231-234
52.	УСТОЙЧИВОЕ РАЗВИТИЕ РЕГИОНОВ С УЧЕТОМ ГЕОГРАФИЧЕСКИХ АСПЕКТОВ Матжанова Ш.К.	235-236
53.	CHO‘L MINTAQASIDA EKOTURIZMNI RIVOJLANISHI VA ISTIQBOLLARI (BUXORO VILOYATI MISOLIDA) Mavlonov A.M.	237-240
54.	ЭТНОСПОРТ КАК ФОРМА РАЗВИТИЯ СПОРТИВНОГО ТУРИЗМА В КЫРГЫЗСКОЙ РЕСПУБЛИКЕ Момошева Г.А., Кулуев Б.М., Шералиев К.К.	241-245